

“Ipoteka-bank” ATIB
Boshqaruvi yig‘ilishining
153 sonli bayoni

Toshkent sh.

26.06.2023

Raislik qildi:

E.Inomjonov

“Ipoteka-bank” ATIB

Boshqaruvi Raisi

Boshqaruv a’zolari:

Qatnashdilar:

V.Vorobey, F.Botirov, D.Zulfukarov,
M.Abduraxmanov, N.Rahbarov,
J.Xayrullaev,

Taklif etilganlar:

A.Muxitdinov, A.Namozov, H.Murodov,

Yig‘ilish kotibi:

B.Ushbaev

Yig‘ilish kvorumi:

70 %

Kun tartibi:

1. "Imkon-Sug‘urta" aksiyadorlik jamiyatining 2022 yil faoliyati yakunlari bo‘yicha Kuzatuv kengashi hisobotini tasdiqlash.

2. "Imkon-Sug‘urta" aksiyadorlik jamiyatining 2022 yil yakunlari bo‘yicha moliya-xo‘jalik faoliyati yuzasidan Taftish komissiyasining xulosasini (hisobotini) tasdiqlash.

3. "Imkon-Sug‘urta" aksiyadorlik jamiyatining 2022 yil faoliyati yakunlari bo‘yicha Boshqaruv hisoboti va 2023 yildagi ustuvor vazifalarini tasdiqlash.

4. "Imkon-Sug‘urta" aksiyadorlik jamiyatining 2022 yil faoliyati yakunlari bo‘yicha yillik hisobotini, jumladan buxgalteriya balansini, moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotini va auditorlik tashkilotining xulosasini tasdiqlash.

5. "Imkon-Sug‘urta" aksiyadorlik jamiyatining 2022 yil faoliyati yakuni bo‘yicha sof foydasini taqsimlash.

6. "Imkon-Sug‘urta" aksiyadorlik jamiyatining ustav fondini (ustav kapitalini) qo‘shimcha aksiyalarni joylashtirish yo‘li bilan o‘z kapitali hisobidan ko‘paytirish, qo‘shimcha aksiyalarini chiqarish haqida qaror qabul qilish, qo‘shimcha chiqarilayotgan aksiyalarining joylashtirish tartibi va muomalaga kiritish shartlarini belgilash hamda Aksiyalar qo‘shimcha chiqarilishi to‘g‘risidagi qarorini tasdiqlash.

7. "Imkon-Sug‘urta" aksiyadorlik jamiyatining Taftish komissiyasi a‘zolarini saylash.

8. "Imkon-Sug‘urta" aksiyadorlik jamiyatining kundalik xo‘jalik faoliyatini yuritish jarayonida (joriy xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq) affillangan shaxslar bilan bitimlarni kelgusida Jamiyat tomonidan mustaqil amalga oshirishi uchun aksiyadorlarning keyingi yillik umumiy yig‘ilishigacha bo‘lgan davrda tuzilishi mumkin bo‘lgan (kutilayotgan) bitimlarni aniqlash va ma‘qullash.

(E.Inomjonov, A.Muxitdinov, E.Inomjonov)

Kun tartibidagi birinchi masala yuzasidan, "Imkon-Sug‘urta" AJ Kuzatuv kengashi raisi A.Muxitdinov so‘zga chiqib, O‘zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida"gi Qonuni 58-moddasi hamda "Imkon-Sug‘urta" AJ Ustavi 17.4-bandiga muvofiq Kuzatuv kengashi

hisoboti Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishida ko'rib chiqilishini ma'lum qildi va "Imkon-Sug'urta" aksiyadorlik jamiyatining 2022 yil faoliyati yakunlari bo'yicha Kuzatuv kengashi hisobotini (matni 1-ildovada keltiriladi) yig'ilish ishtirokchilariga taqdim etdi.

Kun tartibidagi ikkinchi masala yuzasidan, "Imkon-Sug'urta" AJ Taftish komissiyasi a'zosi F.Narimov so'zga chiqib, O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni 107-moddasi hamda "Imkon-Sug'urta" AJ Ustavi 21.10-bandiga muvofiq Taftish komissiyasining xulosasi (hisoboti) Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishida ko'rib chiqilishini ma'lum qildi va "Imkon-Sug'urta" aksiyadorlik jamiyatining 2022 yil yakunlari bo'yicha moliya-xo'jalik faoliyati yuzasidan Taftish komissiyasining xulosasini (hisobotini) (matni 2-ildovada keltiriladi) yig'ilish ishtirokchilariga taqdim etdi.

Kun tartibidagi uchinchi masala yuzasidan, "Imkon-Sug'urta" AJ Boshqaruv raisi A.Namozov so'zga chiqib, O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni 58-moddasi hamda "Imkon-Sug'urta" AJ Ustavi 17.4-bandiga muvofiq Boshqaruv hisoboti Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishida ko'rib chiqilishini ma'lum qildi va "Imkon-Sug'urta" aksiyadorlik jamiyatining 2022 yil faoliyati yakunlari bo'yicha Boshqaruv hisobotini (matni 3-ildovada keltiriladi) yig'ilish ishtirokchilariga taqdim etdi.

Kun tartibidagi to'rtinchi masala yuzasidan, "Imkon-Sug'urta" AJ Bosh buxgalteri S.Ortiqov so'zga chiqib, O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni 58-moddasi va "Imkon-Sug'urta" AJ Ustavi 17.4-bandiga muvofiq yillik hisobot Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishida ko'rib chiqilishini ma'lum qildi va "Imkon-Sug'urta" aksiyadorlik jamiyatining 2022 yil faoliyati yakunlari bo'yicha yig'ilish ishtirokchilariga quyidagilarni taqdim etdi:

"Qimmatli qog'ozlar bozorida axborot taqdim etish va e'lon qilish Qoidalari" (ro'yxat raqami 2383, 2012 yil 31 iyul) talablariga binoan tayyorlangan yillik hisobot (matni 4-ildovada keltiriladi);

buxgalteriya balansi (matni 5-ildovada keltiriladi);

moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot (matni 6-ildovada keltiriladi);

"TRANS-AUDIT-A" MChJ auditorlik tashkilotining xulosasi (matni 7-ildovada keltiriladi).

Kun tartibidagi beshinchi masala yuzasidan, "Imkon-Sug'urta" AJ Kuzatuv kengashi raisi A.Muxitdinov so'zga chiqib, quyidagilarni ma'lum qildi.

O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni 58, 59 va 75-moddalari hamda "Imkon-Sug'urta" AJ Ustavi 17.4, 17.8 va 18.3-bandlariga muvofiq foyda va zararlar taqsimoti Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishida ko'rib chiqiladi hamda Kuzatuv kengashi tomonidan dividend miqdori, uni to'lash shakli va tartibi yuzasidan Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga berilgan tavsiyalar doirasida "Imkon-Sug'urta" AJ foydasi va zararlarini taqsimlash Aksiyadorlarning umumiy yig'ilish vakolatiga kiradi.

"Imkon-Sug'urta" aksiyadorlik jamiyati 2022 yildagi faoliyati yakuniga ko'ra 9 625 339 971,14 so'm sof foyda olgan.

"TRANS-AUDIT-A" MChJ auditorlik tashkiloti tomonidan "Imkon-Sug'urta" AJning 2022 yil uchun moliyaviy hisoboti ishonchliligi haqida 2023 yil 1 maydagi mustaqil auditorning auditorlik xulosasi berilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, Kuzatuv kengashi tomonidan "Imkon-Sug'urta" AJning 2022 yil faoliyati yakuni bo'yicha 9 625 339 971,14 so'm sof foydasidan:

qonunchilik talablariga muvofiq 5 foizdan kam bo'lmagan miqdorda 17,98 foiz yoki 1 730 603 129,03 so'mni zaxira fondiga;

qolgan 82,02 foiz yoki 7 894 736 842,11 so'mni, shundan dividend bo'yicha foyda solig'iga 5 foizi yoki 394 736 842,11 so'mni va "Imkon-Sug'urta" AJ ustav fondini (ustav

kapitalini) ko'paytirishga 7 500 000 000,00 so'mni yo'naltirilishi to'g'risida to'g'risida tavsiya berilgan.

Kun tartibidagi oltinchi masala yuzasidan, "Imkon-Sug'urta" AJ Kuzatuv kengashi raisi A.Muxitdinov so'zga chiqib, quyidagilarni ma'lum qildi.

Hozirda "Imkon-Sug'urta" AJning shakllangan ustav fondi (ustav kapitali) miqdori 45 000 000 000 (qirq besh milliard) so'mni tashkil etib, nominal qiymati 1 (bir) so'm bo'lgan egasi nomi yozilgan hujjatsiz shakldagi 45 000 000 000 (qirq besh milliard) dona oddiy aksiyalardan iborat. Mazkur aksiyalar "Imkon-Sug'urta" AJning yagona aksiyadori "Ipoteka-bank" ATIBga joylashtirilgan.

"Imkon-Sug'urta" AJ Ustavi 11.21-bandida ustav fondni (ustav kapitalni) oshirish maqsadida, joylashtirilgan aksiyalarga qo'shimcha ravishda joylashtirishga haqli bo'lgan e'lon qilingan aksiyalarning miqdori nominal qiymati 1 (bir) so'mlik 10 938 747 108 (o'n milliard to'qqiz yuz o'ttiz sakkiz million yetti yuz qirq yetti ming bir yuz sakkiz) dona umumiy qiymati 10 938 747 108 (o'n milliard to'qqiz yuz o'ttiz sakkiz million yetti yuz qirq yetti ming bir yuz sakkiz) so'm bo'lgan, egasining nomi yozilgan, hujjatsiz shakldagi, oddiy aksiyalardan iboratligi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni 18, 33, 34, va 59-moddalari hamda "Imkon-Sug'urta" AJ Ustavi 9.1, 9.2, 9.4, 9.6, 9.7, 11.6, va 17.8-bandlariga muvofiq:

ustav fond (ustav kapital) qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirilishi mumkin;

qo'shimcha aksiyalar faqat Ustavda belgilangan e'lon qilingan aksiyalarning soni doirasida joylashtiriladi;

ustav fondini (ustav kapitalini) qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yuli bilan ko'paytirish to'g'risidagi qarorda joylashtiriladigan qo'shimcha oddiy aksiyalarning soni, ularni joylashtirish muddatlari va shartlari belgilangan bo'lishi kerak;

qo'shimcha aksiyalarni chiqarish haqidagi qaror ustav fondni (ustav kapitalni) ko'paytirish to'g'risidagi qaror ekanligi belgilangan;

ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirish o'z kapitali hisobidan qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshirilishi mumkin;

qo'shimcha chiqariladigan aksiyalar yopiq obuna vositasida joylashtirilishi mumkin;

ustav fond (ustav kapital) o'z kapitali hisobidan ko'paytirilayotganda qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish ularning nominal qiymati bo'yicha amalga oshiriladi;

ustav fondni (ustav kapitalni) ko'paytirish to'g'risidagi qaror Aksiyadorlarning umumiy yig'ilish tomonidan qabul qilinadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shuningdek O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi, "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi Qonunlari, "Qimmatli qog'ozlar emissiyasi va emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarilishlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish Qoidalari"ga (ro'yxat raqami 2000, 2009 yil 30 avgust) muvofiq "Imkon-Sug'urta" aksiyadorlik jamiyatining ustav fondini (ustav kapitalini) qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan o'z kapitali hisobidan 7 500 000 000 so'mga ko'paytirish yuzasidan qo'shimcha aksiyalarini chiqarish, chiqarilayotgan aksiyalarining joylashtirish tartibi va muomalaga kiritish shartlarini belgilash hamda Aksiyalar qo'shimcha chiqarilishi to'g'risidagi qarorini (matni 8-ilovada keltiriladi) tasdiqlash va ushbu qarorni qonunchilikda belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazish lozim.

Kun tartibidagi yettinchi masala yuzasidan, "Imkon-Sug'urta" AJ Kuzatuv kengashi raisi A.Muxitdinov so'zga chiqib, quyidagilarni ma'lum qildi.

O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni 58-moddasi hamda "Imkon-Sug'urta" AJ Ustavi 17.4 va

21.2-bandlariga muvofiq Taftish komissiyasi a'zolarini 1 (bir) yil muddatga saylash masalasi Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishida ko'rib chiqiladi.

"Imkon-Sug'urta" AJ Taftish komissiyasi 3 (uch) nafar a'zoldan iborat va Taftish komissiyasi a'zoriga 1 (bir) yil muddatga quyidagi nomzodlarni saylash taklif etilmoqda:

1) Narimov Farxod Ravshanovich – "Ipoteka-bank"ATIB Moliyaviy hisobot va nazorat departamenti direktori;

2) Xudoyberdiev Bobir Iskandarovich – "Ipoteka-bank"ATIB Komplaens nazorati departamenti direktori;

3) Fayziev Ulugbek Ravshanovich – "Ipoteka-bank"ATIB Risk hisobotlari va risk menejmenti instrumentlari bo'limi boshlig'i.

Kun tartibidagi sakkizinchi masala yuzasidan, "Imkon-Sug'urta" AJ Boshqaruv raisi A.Namozov so'zga chiqib, quyidagilarni ma'lum qildi.

O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni 8 va 9-boblariga muvofiq:

"Imkon-Sug'urta" AJ kundalik xo'jalik faoliyatini yuritish jarayonida tuziladigan bitimlar hamda aksiyalarni va boshqa qimmatli qog'ozlarni joylashtirish bilan bog'liq bo'lgan bitimlar yirik bitimlar hisoblanmasligi;

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi affillangan shaxs bilan kelgusida "Imkon-Sug'urta" AJ tomonidan kundalik xo'jalik faoliyati jarayonida aksiyadorlarning keyingi yillik umumiy yig'ilishigacha bo'lgan davrda tuzilishi mumkin bo'lgan bitimni (bitimlarni) ma'qullash haqida qaror qabul qilishga haqli ekanligi belgilangan.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, "Imkon-Sug'urta" AJning kundalik xo'jalik faoliyatini yuritish jarayonida (joriy xo'jalik faoliyati bilan bog'liq) affillangan shaxslar bilan bitimlarni kelgusida "Imkon-Sug'urta" AJ tomonidan mustaqil amalga oshirishi uchun aksiyadorlarning keyingi yillik umumiy yig'ilishigacha bo'lgan davrda tuzilishi mumkin bo'lgan (kutilayotgan) bitimlarni (matni 9-ilovada keltiriladi) ma'qullash taklif etilmoqda.

Yuqorida bayon etilganlarni, shuningdek "Imkon-Sug'urta" AJ yagona aksiyadori "Ipoteka-bank" ATIB ekanligini hamda O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni 58-moddasi va "Imkon-Sug'urta" AJ Ustavi 17.7-bandiga muvofiq Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolatiga kiritilgan masalalar bo'yicha qarorlar barcha oddiy aksiyalarga egalik qiluvchi yagona aksiyador tomonidan yakka tartibda qabul qilinishini inobatga olib,

Boshqaruv qaror qiladi:

1."Imkon-Sug'urta" aksiyadorlik jamiyatining 2022 yil faoliyati yakunlari bo'yicha Kuzatuv kengashi hisoboti 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2."Imkon-Sug'urta" aksiyadorlik jamiyatining 2022 yil yakunlari bo'yicha moliya-xo'jalik faoliyati yuzasidan Taftish komissiyasining xulosasi (hisoboti) 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3."Imkon-Sug'urta" aksiyadorlik jamiyatining 2022 yil faoliyati yakunlari bo'yicha Boshqaruv hisoboti 3-ilovaga muvofiq va mazkur hisobotda taklif etilgan "Imkon-Sug'urta" aksiyadorlik jamiyatining 2023 yildagi ustuvor vazifalari tasdiqlansin.

4."Imkon-Sug'urta" aksiyadorlik jamiyati faoliyatining 2022 yil yakunlari bo'yicha yillik hisoboti 4-ilovaga, jumladan buxgalteriya balansi 5-ilova, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisoboti 6-ilova va auditorlik tashkilotining xulosasi 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5."Imkon-Sug'urta" aksiyadorlik jamiyatining 2022 yil faoliyati yakuni bo'yicha 9 625 339 971,14 so'm sof foydasi quyidagicha taqsimlansin:

a) 1 730 603 129,03 so'm yoki 17,98 foiz miqdorda zaxira fondiga yo'naltirilsin;

b) 7 894 736 842,11 so'm yoki 82,02 foiz, shundan 394 736 842,11 so'm yoki 5 foizi dividend bo'yicha foyda solig'i va 7 500 000 000,00 so'm ustav fondni (ustav kapitalni)

qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan o'z kapitali hisobidan ko'paytirishga yo'naltirilsin.

6. "Imkon-Sug'urta" aksiyadorlik jamiyatining ustav fondining (ustav kapitalining) miqdori nominal qiymati 1 (bir) so'm bo'lgan 7 500 000 000 (etti milliard besh yuz million) dona umumiy qiymati 7 500 000 000 (etti milliard besh yuz million) so'mlik egasining nomi yozilgan oddiy hujjatsiz shakldagi qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan o'z kapitali, ya'ni taqsimlanmagan foydasi (2022 yil yakuni bo'yicha sof foydasi) hisobidan 45 000 000 000 (qirq besh milliard) so'mdan 52 500 000 000 (ellik ikki milliard besh yuz million) so'mga yetkazilsin.

"Imkon-Sug'urta" aksiyadorlik jamiyatining nominal qiymati 1 (bir) so'm bo'lgan 7 500 000 000 (etti milliard besh yuz million) dona umumiy qiymati 7 500 000 000 (etti milliard besh yuz million) so'mlik egasining nomi yozilgan oddiy hujjatsiz shakldagi qo'shimcha aksiyalari yopiq obuna orqali muomalaga chiqarilsin hamda mazkur qo'shimcha chiqarilayotgan aksiyalarning joylashtirish tartibi va muomalaga kiritish shartlari quyidagicha belgilansin:

1) Chiqarilayotgan aksiyalar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan boshlab 5-kun (beshinchi kun) holatiga shakllantirilgan aksiyadorlar reestrda ko'rsatilgan Jamiyat aksiyadorlari o'rtasida ular egalik qilgan aksiyalar soniga va turiga mutanosib ravishda 6:1 koeffitsientda yopiq obuna usuli bilan joylashtiriladi;

2) Chiqarilayotgan aksiyalar davlat ro'yxatiga olingan kundan boshlab 30 (o'ttiz) kalendar kuni davomida joylashtiriladi:

- aksiyalarni joylashtirishni boshlash sanasi – ushbu aksiyalar chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan boshlab 6-kun (oltinchi kun) hisoblanadi. Agar aksiyalarni joylashtirishni boshlash sanasi bank hisob operatsiyalari uchun dam olish kuniga to'g'ri kelsa, unda aksiyalarni joylashtirish keyingi birinchi ish kunida boshlanadi;

- aksiyalarni joylashtirishni tugatish sanasi – ushbu chiqarilishning so'nggi aksiyasi joylashtirilgan kun, biroq aksiyalarni joylashtirishni tugatish sanasi, ushbu aksiyalar davlat ro'yxatiga olingan kundan boshlab 30 (o'ttiz) kalendar kundan oshmasligi lozim;

3) Chiqarilayotgan aksiyalar biror bir fuqarolik-huquqiy bitim (shartnoma) tuzilmasdan joylashtiriladi.

Aksiyalar joylashtirilishi jarayonida anderrayterlar jalb qilinishi ko'zda tutilmaydi;

4) Ushbu chiqarilishdagi joylashtirilayotgan aksiyalarni olishga bo'lgan imtiyozli huquq ko'zda tutilmagan;

5) Chiqarilayotgan aksiyalar nominal qiymati bo'yicha 1 (bir) so'mdan joylashtiriladi;

6) Aksiyalar uchun to'lovlar Emitentning 2023 yil 1 yanvar holatiga o'z kapitali, ya'ni taqsimlanmagan foydasi (2022 yil faoliyati yakuni bo'yicha sof foydasi) hisobidan qonunchilikda belgilangan tartibda buxgalteriya yozuvlarida tegishli o'tkazmalar o'tkazish orqali amalga oshiriladi;

7) Ushbu aksiyalar chiqarilishi amalga oshmagan deb topilgan taqdirda aksiyalar uchun to'langan mablag'lar 10 (o'n) kun davomida qonunchilikda belgilangan tartibda buxgalteriya yozuvlarida tegishli o'tkazmalar o'tkazish orqali to'liq qaytariladi.

"Imkon-Sug'urta" aksiyadorlik jamiyatining Aksiyalar qo'shimcha chiqarilishi to'g'risidagi qarori 8-ilovaga muvofiq tasdiqlansin va uning tasdiqlanganligi bo'yicha imzolash huquqi "Imkon-Sug'urta" AJ Kuzatuv kengashi raisi A.Muxitdinovga berilsin.

"Imkon-Sug'urta" AJ Boshqaruv raisi A.Namozov zimmasiga "Imkon-Sug'urta" AJ aksiyalari qo'shimcha chiqarilishini qonunchilikda belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazishni ta'minlash vazifasi yuklatilsin.

7. "Imkon-Sug'urta" aksiyadorlik jamiyatining Taftish komissiyasi a'zolari etib quyidagi nomzodlar 1 (bir) yil muddatga saylansin:

1) Narimov Farxod Ravshanovich – "Ipoteka-bank"ATIB Moliyaviy hisobot va nazorat departamenti direktori;

2) Xudoyberdiev Bobir Iskandarovich – "Ipoteka-bank"ATIB Komplaens nazorati departamenti direktori;

3) Fayziev Ulugbek Ravshanovich – "Ipoteka-bank"ATIB Risk hisobotlari va risk menejmenti instrumentlari bo'limi boshlig'i.

8. "Imkon-Sug'urta" aksiyadorlik jamiyatining kundalik xo'jalik faoliyatini yuritish jarayonida (joriy xo'jalik faoliyati bilan bog'liq) affillangan shaxslar bilan bitimlarni kelgusida "Imkon-Sug'urta" AJ ("Imkon-Sug'urta" AJ Boshqaruvi) tomonidan mustaqil amalga oshirishi uchun aksiyadorlarning keyingi yillik umumiy yig'ilishigacha bo'lgan davrda tuzilishi mumkin bo'lgan (kutilayotgan) bitimlar 9-ilovaga muvofiq ma'qullansin.

9. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish "Imkon-Sug'urta" AJ Kuzatuv kengashi raisi A.Muxitdinov zimmasiga yuklatilsin.

10. Mazkur Boshqaruv qarori bir vaqtning o'zida "Imkon-Sug'urta" aksiyadorlik jamiyatining 2022 yil faoliyati yakuni bo'yicha Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi yuzasidan yagona aksiyadori qarori ekanligi belgilansin.

Ushbu yig'ilish bayoni 2023 yil "05" iyul kuni tuzildi.

Boshqaruv Raisi



E.Inomjonov

Boshqaruv a'zolari:

V.Vorobey



F.Botirov



D.Zulfukarov



M.Abduraxmanov



N.Rahbarov



J.Xayrullaev



Yig'ilish kotibi:

B.Ushbaev



Taklif etilgan:

A.Muxitdinov

A stylized handwritten signature in black ink, featuring a large, looped initial 'A' followed by a series of connected strokes.

A.Namozov

A handwritten signature in black ink, appearing to start with a capital 'A' and followed by a series of connected, somewhat cursive strokes.

H.Murodov

A handwritten signature in black ink, featuring a large, looped initial 'H' followed by a series of connected strokes.